



## O'ZBEKISTONNING SAVDO KELISHUVLARIDA ISHTIROK ETISH SIYOSATI BO'YICHA TAVSIYALAR

**Toshpulatova Malika**

*Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti*

ORCID: 0009-0001-1382-7854

[malika.toshpulatova@mail.ru](mailto:malika.toshpulatova@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvi, xususan Jahon savdo tashkilotida ishtirok etish siyosatining iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot savdo kelishuvlarining eksport, investitsiyalar va raqobatbardoshlikka ta'sirini ochib beradi. Xalqaro va mintaqaviy tajriba asosida savdo siyosatini shakllantirishda inklyuzivlik, institutsional muvofiqlashtirish va manfaatdor tomonlar ishtirokining ahamiyati yoritiladi. Empirik tahlil 2000–2024-yillar uchun O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston ma'lumotlari asosida panel regressiya modeli orqali amalga oshiriladi. Natijalar JSTga a'zolik YAIM hajmini o'rtacha 17 foizga oshirishini ko'rsatadi. Shuningdek, JST a'zoligi investitsiya muhitini yaxshilashi, eksport diversifikatsiyasini kuchaytirishi va institutsional islohotlarni jadallashtirishi aniqlangan. Prognoz tahliliga ko'ra, 2030-yilga kelib O'zbekiston YAIMi JSTga a'zo bo'lish sharoitida 245 mlrd AQSh dollariga yetishi mumkin. Maqolada savdo liberallashtiruvining ehtimoliy ijtimoiy va tarmoqlararo xatarlariga ham e'tibor qaratilib, muvozanatli savdo siyosati bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Jahon savdo tashkiloti (JST), savdo kelishuvi, xalqaro iqtisodiy integratsiya, savdo siyosati, iqtisodiy o'sish, YAIM, eksport diversifikatsiyasi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, raqobatbardoshlik.

## РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ПОЛИТИКЕ УЧАСТИЯ УЗБЕКИСТАНА В ТОРГОВЫХ СОГЛАШЕНИЯХ

**Тошпулатова Малика**

*Институт макроэкономических и региональных исследований*

**Аннотация.** В статье анализируются экономические основы интеграции Узбекистана в международную торговую систему, в частности, политика участия во Всемирной торговой организации (ВТО). Исследование выявляет влияние торговых соглашений на экспорт, инвестиции и конкурентоспособность. Подчеркивается важность инклюзивности, институциональной координации и участия заинтересованных сторон в формировании торговой политики на основе международного и регионального опыта. Эмпирический анализ проводится с использованием панельной регрессионной модели на основе данных по Узбекистану, Казахстану и Кыргызстану за 2000–2024 годы. Результаты показывают, что членство в ВТО увеличивает ВВП в среднем на 17%. Также установлено, что членство в ВТО улучшает инвестиционный климат, увеличивает диверсификацию экспорта и ускоряет институциональные реформы. Согласно прогнозному анализу, к 2030 году ВВП Узбекистана при членстве в ВТО может достичь 245 миллиардов долларов США. В статье также рассматриваются потенциальные социальные и межотраслевые риски либерализации торговли и даются практические рекомендации по сбалансированной торговой политике.

**Ключевые слова:** Всемирная торговая организация (ВТО), торговое соглашение, международная экономическая интеграция, торговая политика, экономический рост, ВВП, диверсификация экспорта, прямые иностранные инвестиции, конкурентоспособность.

## RECOMMENDATIONS ON THE POLICY OF UZBEKISTAN'S PARTICIPATION IN TRADE AGREEMENTS

**Toshpulatova Malika**

*Institute of Macroeconomic and Regional Studies*

**Abstract.** *The article analyzes the economic foundations of Uzbekistan's integration into the international trading system, in particular, the policy of participation in the World Trade Organization. The study reveals the impact of trade agreements on exports, investments and competitiveness. The importance of inclusiveness, institutional coordination and stakeholder participation in the formation of trade policy based on international and regional experience is highlighted. The empirical analysis is carried out using a panel regression model based on data for Uzbekistan, Kazakhstan and Kyrgyzstan for 2000–2024. The results show that WTO membership increases GDP by an average of 17%. It is also found that WTO membership improves the investment climate, increases export diversification and accelerates institutional reforms. According to the forecast analysis, by 2030, Uzbekistan's GDP could reach 245 billion US dollars under WTO membership. The article also focuses on the potential social and cross-sectoral risks of trade liberalization and provides practical recommendations for a balanced trade policy.*

**Keywords:** *World Trade Organization (WTO), trade agreement, international economic integration, trade policy, economic growth, GDP, export diversification, foreign direct investment, competitiveness.*

### **Kirish.**

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan chuqur transformatsiyalar, globallashuvning jadallashuvi va iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosatlarida savdo kelishuvlarining o'rnini yanada oshirmoqda. Xususan, turli darajadagi ko'p tomonlama, mintaqaviy, ikki tomonlama savdo kelishuvlarida ishtirok etish mamlakatlar uchun xalqaro bozorlar bilan uyg'unlashish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish, investitsiyalar oqimini jalb etish hamda iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy mexanizmlaridan biriga aylanmoqda. Shu kabi sharoitda O'zbekistonning jahon xo'jalik tizimiga izchil integratsiyalashuvi savdo siyosatining samarali modellarini shakllantirishni, xalqaro savdo kelishuvlarida ishtirok etishning optimallashtirilgan strategiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekistonning jahon savdo tizimiga to'laqonli integratsiyalashuvida JSTga a'zolik masalasi alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tadqiqotlar JSTga qo'shilgan mamlakatlar uchun bozorlar ochilishi, tarif va notarif to'siqlarning qisqarishi, qonunchilikning xalqaro standartlarga moslashuvi va tashqi savdo hajmining oshishi bilan bog'liq ijobiy dinamikani namoyon etganini ko'rsatadi. Masalan, JST a'zoligi savdo siyosatining barqarorligi va prediktabilligini ta'minlashi, tashqi investorlar uchun «ishonch signali» sifatida xizmat qilishi hamda milliy reytinglar va institutsional muhitni yaxshilashi mumkinligi qayd etilgan (Trakman, 2008). Shu bilan birga, JST qoidalariga moslashish jarayonida raqobat muhitining kuchayishi, ichki bozorlarda samaradorlikning oshishi va eksport tarkibining diversifikatsiyasi kabi omillar kuzatilishi haqida ham ilmiy adabiyotlarda fikrlar mavjud (Kaukab, 2011). Boshqa tadqiqotlarda esa JST a'zolidan keyin xizmatlar bozoriga kirish imkoniyatlarining kengayishi, intellektual mulk, sanoat subsidiyalari va texnik reglamentlar bo'yicha shaffoflikning oshishi natijasida milliy iqtisodiyotning barqaror modernizatsiyasiga turtki berishi ta'kidlangan (Marchetti va Roy, 2014).

Global tajriba shundan dalolat beradiki, savdo siyosatini ishlab chiqishda inklyuzivlik, manfaatdor tomonlar bilan muntazam muloqot va idoralararo muvofiqlashtirish xalqaro kelishuvlardan ko'zlangan iqtisodiy samaraga erishishda muhim omillardan biridir. Masalan, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sektorlarga ta'sir qiluvchi savdo bandlarini ishlab chiqishda faktlarga asoslangan baholash, manfaatdor tomonlar bilan birgalikdagi ekspertiza va siyosiy uyg'unlikka erishish hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi (Blouin, 2007). Shuningdek, fuqarolik jamiyati ishtirokini ta'minlash savdo muzokaralarining legitimligi va jarayonning shaffofligini oshiradi (Pupo, 2025).

Bundan tashqari, ko'plab olimlar savdo kelishuvlarining ko'payishi, ya'ni ikki tomonlama va mintaqaviy bitimlarning jadal o'sishi global savdo arxitekturasida murakkabliklar keltirib chiqargani bilan birga, ko'p tomonlama jarayonlarda yuzaga kelgan to'siqlarni qoplashda muhim o'rin tutganini qayd etadi (Trakman, 2008). Shu bilan birga, raqobat siyosatining ikki tomonlama bitimlarga kiritilishi kam rivojlangan davlatlar institutlarini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkinligi ta'kidlanadi (Sung, 2013).

Xizmatlar savdosi bo'yicha bozorga kirish masalalarini ko'p tomonlama shakldagi kelishuvlar, jumladan TISA kabi tashabbuslar orqali samarali tartibga solish mumkinligi haqida ilmiy fikrlar mavjud bo'lib, ularda mavjud PTAlardan eng yaxshi majburiyatlarni bir nuqtada jamlash orqali yangi savdo imkoniyatlarini kengaytirish taklif qilingan (Marchetti va Roy, 2014). Shu bilan birga, milliy savdo siyosati rivojlanish strategiyalari bilan uyg'un holda ishlab chiqilishi, manfaatdor guruhlar bilan hamkorlikda shakllantirilishi hamda liberallashtirish va himoya choralarining muvozanatli qo'llanilishi davlat iqtisodiy manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qilishi ta'kidlanadi (Kaukab, 2011).

O'zbekiston uchun muhim jihatlardan biri xalqaro qiymat zanjirlariga faol qo'shilish orqali erkin savdo kelishuvlaridan maksimal foyda olish, shuningdek, tanlab import bojlarini pasaytirish orqali yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish imkoniyatlaridir (Srivastava, 2019). Bu jarayon O'zbekistonning iqtisodiy modernizatsiyasi, eksportni diversifikatsiya qilish va xalqaro savdo tizimidagi mavqei mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, JST a'zolicining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini ilmiy jihatdan asosli baholash uchun, avvalo, xalqaro va mintaqaviy darajada o'tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki JSTga qo'shilgan qator mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, savdo liberallashtirish natijalari iqtisodiy struktura, bozor institutsionalini rivojlanganlik darajasi, eksport tarkibi va milliy raqobatbardoshlik omillariga ko'ra turlicha namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda ayrim mamlakatlarda JST a'zoliciga eksport hajmini oshirgani, investitsiya oqimlarini kengaytirgani va ichki bozorda samaradorlikni kuchaytirgani qayd etilgan bo'lsa (Trakman, 2008), boshqa holatlarda esa raqobatning keskinlashuvi, muayyan tarmoqlarning qisqarishi va ijtimoiy moslashuv xarajatlarining o'sishi kabi salbiy ta'sirlar qayd etilgani ham ta'kidlanadi.

Jahon savdo tizimiga integratsiyalashuv masalasi, xususan JSTga a'zolikning iqtisodiy va institutsional ta'sirlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning xulosalari O'zbekiston uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, JSTga qo'shilishning ta'siri bir tomonlama emas, balki kompleks iqtisodiy o'sish, savdo dinamikasi, investitsiyalar, institutsional sifat, tarmoqlararo qayta taqsimlash va ijtimoiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan ko'p qirrali jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Aksar tadqiqotlar JSTga a'zolik savdo hajmini sezilarli oshirishini ta'kidlaydi. Allee va Scalera (2012) tadqiqotida qayd etilishicha, JSTga qo'shilish oldidan amalga oshiriladigan chuqur liberallashtirish choralari va institutsional moslashuv mamlakatlarning tashqi savdosi o'sishiga bevosita turtki beradi. A'zolikning dastlabki yillarida savdo hajmidagi o'sish ayniqsa yuqori bo'lishi ta'kidlanadi. Xizmatlar eksporti bo'yicha ham shunga o'xshash dinamika kuzatiladi: Gnangnon (2024) JSTga a'zo bo'lish natijasida an'anaviy va zamonaviy xizmatlar

eksporti sezilarli oshgani, xizmatlar tarmog'i diversifikatsiyasi kuchayganini ko'rsatadi.

JSTga a'zolikning investitsiyaviy muhitga ta'siri tadqiqotlarda muhim o'rin tutadi. Bütthe va Milnerning (2012) xulosalariga ko'ra, xalqaro savdo kelishuvlari investorlar uchun huquqiy kafolat va barqarorlik muhitini yaratib, TTXI oqimini ko'paytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, investitsiyalar oqimi institutsional sifatni yaxshilash, xususan, ma'muriy samaradorlik va biznes muhitining shaffofligini oshirishga xizmat qilishi haqida dalillar mavjud (Dang, 2013). Bu jihat O'zbekiston uchun ham dolzarb, zero mamlakatda xorijiy kapital uchun raqobatchan va kafolatlangan muhit shakllanishi JST a'zolidigining eng muhim natijalaridan biri bo'lishi mumkin.

Gnangnon JSTga a'zolik muddati uzaygan sari iqtisodiy o'sish o'zgaruvchanligi kamayishini isbotlaydi. Savdo ochiqdigi oshishi, eksport tarkibining yangilanishi va bozorlar diversifikatsiyasi mamlakat iqtisodiyotini tashqi shoklarga nisbatan barqaror qiladi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun bu juda muhim, chunki iqtisodiy barqarorlik investitsiyalarni jalb qilish va tashqi savdo siyosatining samaradorligini ta'minlaydi.

Cling va boshqalar (2009) JSTga qo'shilgan Vyetnam tajribasini tahlil qilib, sanoat tarmoqlarida ish o'rinlari va real maoshlar o'sishini qayd etadi. Ayniqsa, malakali bo'lmagan mehnat uchun maoshlar o'sishi ko'proq bo'lgan. Biroq tadqiqotlar JST a'zolidigini ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkinligini ham ko'rsatadi: shahar va qishloq o'rtasidagi daromad farqi o'sishi, ayrim tarmoqlarning raqobatga dosh berolmasligi kabi holatlar kuzatilgan. Bu O'zbekiston uchun ham ehtimoliy ssenariy bo'lib, tarmoqlararo qayta taqsimlash jarayonlarini puxta boshqarish talab etiladi.

Buettner va Madzharovanning (2019) tadqiqotlariga ko'ra, JSTga a'zo bo'lgan mamlakatlar tariflar pasayishi natijasida bojxonadan tushum kamayishini qoplash uchun aksar hollarda iste'mol soliqlarini (ayniqsa QQS) oshirishga o'tadi. Bu soliq tizimidagi tarkibiy o'zgarishlar, shu jumladan "tariff-cum-tax reforma", JSTga a'zolikning iqtisodiy oqibatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekistonning soliq islohotlari jarayonida ham bu tendensiya ehtimol saqlanishi mumkin.

Wang JSTga a'zolik mamlakat huquqiy tizimiga "radiatsion ta'sir" ko'rsatishini ta'kidlaydi. Huquqiy islohotlar tovarlar, xizmatlar va intellektual mulk sohalarida xalqaro standartlarga moslashuvni o'z ichiga oladi. O'zbekiston ham a'zolik jarayonida qonunchilikni yo'naltiruvchi 30 dan ortiq sohada keng ko'lamli moslashuv ishlarini amalga oshirishi kutilmoqda.

Qishloq xo'jaligi savdosi JSTning SPS bitimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu sohadagi standartlar va regulyatorlar xalqaro savdoda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Sanitariya va fitosanitariya talablarini bajarish milliy agrar sektori raqobatbardoshligini oshiradi, ammo adaptatsiya xarajatlarini talab qiladi.

JSTga a'zo bo'lish doim ham tez va oson iqtisodiy transformatsiyaga olib kelmaydi. Masalan, Rossiya tajribasi bo'yicha Temnova JST oldidan 25 yillik iqtisodiy qayta qurish davri kerak bo'lishini ta'kidlaydi. Ya'ni, a'zolikning ijobiy samarasi uzoq muddatli va tizimli islohotlar bilan bog'liq.

Bartels savdo liberallashtirish mehnat bozori, atrof-muhit va inson huquqlari bo'yicha ijobiy va salbiy ta'sirlar keltirib chiqarishini ta'kidlaydi. Bu sohalarda maxsus siyosatlarisiz savdo o'sishi barqaror rivojlanishga avtomatik ravishda olib kelmasligi qayd etiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvi va JSTga a'zolikning iqtisodiy ta'sirini baholashga qaratilgan bo'lib, metodologiya nazariy tahlil, empirik modellashirish va prognozlash yondashuvlarini birlashtiradi. Xalqaro savdo nazariyalari va iqtisodiy integratsiya konsepsiyalariga tayanadi. JST, ikki va ko'p tomonlama savdo



kelishuvlarining iqtisodiy ta'siri bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. JSTga a'zolikning savdo, investitsiya va institutsional rivojlanishga ta'siri bo'yicha ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar solishtiriladi. Shuningdek, tadqiqotda 2000–2024-yillarni qamrab olgan panel ma'lumotlar ishlatilgan. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston tanlab olingan. YaIM, sanoat ishlab chiqarishi, ishsizlik darajasi, savdo integratsiyasi indikatorlari, JSTga a'zolik va integratsion ittifoqlarda ishtirok etish omillari asosiy ko'rsatkichlar etib tanlab olingan. O'zbekiston YAIM ko'rsatkichlari bo'yicha trend modeli tuzilgan. AR(1) avtokorrelyatsiya modeli yordamida iqtisodiy o'sishning inertsionligi baholangan. Model mosligi  $R^2$ , Durbin–Watson va dispersiya ko'rsatkichlari orqali tekshiriladi. Trend va regressiya modellariga asoslangan prognozlash amalga oshiriladi. 2025–2030-yillar uchun YAIM prognozi tuziladi. JST a'zolidan qo'shimcha 17 foizlik o'sish effekti prognozlarda inobatga olinadi. Mazkur metodologiya JSTga a'zolikning O'zbekiston iqtisodiy o'sishiga ta'sirini miqdoriy va sifat jihatdan baholash imkonini beradi hamda uzoq muddatli savdo siyosati qarorlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yuqoridagi tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, JSTga qo'shilishning ta'siri mamlakatning iqtisodiy tuzilmasi, institutlari va islohot tezligiga bog'liq holda turlicha namoyon bo'ladi. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston uchun JST a'zoligi quyidagi strategik imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin:

- tashqi savdo va xizmatlar eksportida sezilarli o'sish;
- investitsiya muhitining yaxshilanishi va TTXI oqimining ko'payishi;
- raqobat muhitining kuchayishi orqali tarmoqlar samaradorligining oshishi;
- huquqiy va institutsional islohotlarni jadallashtirish;
- iqtisodiy barqarorlikning oshishi.

Biroq shunga qo'shimcha ravishda, tarmoqlararo qayta taqsimlash jarayonlari, ijtimoiy tengsizlik, qishloq xo'jaligi va yengil sanoat kabi sektorlarda raqobat bosimining oshib ketishi ehtiyotkorlikni talab qiladi. Shu bois, prognoz qilishdan avval ilmiy manbalarning chuqur tahlili JSTga a'zolik ssenariylarini realistik baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvi, xususan, Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a'zo bo'lish jarayonining mamlakat iqtisodiy o'sishiga ko'rsatadigan potensial ta'siri empirik tahlil asosida baholanadi. Tadqiqotning 2000–2024-yillar davomida O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlarining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari panel ma'lumotlar bazasi asosida o'rganilib, iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar quyidagi regressiya tenglamasi orqali baholangan edi:

$$\log(Yaim_{it}) = 17.245 + 0.31 \cdot \log(Sanoat_{it}) + 0.008 \cdot Ishsizlik_{it} + 0.16 \cdot Jst_{it} - 0.179 \cdot Yeio_{it} + \varepsilon_{it}$$

Natijalar shuni ko'rsatadiki, JSTga a'zolik omili YAIMning logarifmik ko'rinishiga ijobiy va statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Modeldagi JST koeffitsiyentining 0.16 ga tengligi JSTga a'zolik YAIMning o'rtacha 17 foiz ga oshishiga olib kelishini bildiradi. Bu logarifmik modelning iqtisodiy talqiniga ko'ra quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi:

$$Yaim_{it} = e^{17.245} \cdot Sanoat_{it}^{0.31} \cdot Ishsizlik_{it}^{0.0008} \cdot e^{0.16Jst_{it}} \cdot e^{-0.179Yeio_{it}} + u_{it}$$

Mazkur soddalashtirilgan ko'rinishdan anglashiladiki, boshqa omillar o'zgarmagan taqdirda JSTga a'zo bo'lgan holatda YAIM JSTga a'zo bo'lmagan sharoitga nisbatan 1.17 baravar, ya'ni 17 foizga yuqoriroq bo'ladi. Bu JST a'zoligi iqtisodiyot uchun qo'shimcha o'sish impulsini yaratishini aniq tasdiqlaydi.

Aksincha, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi integratsion ittifoqlarida ishtirok etish omili (YeOII) YAIMga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. YeOII koeffitsiyentining manfiy qiymati ushbu platformaga chuqur integratsiya O'zbekiston iqtisodiyotining mavjud strukturasi uchun


ma'lum darajada noqulay bo'lishi mumkinligini anglatadi. Bu esa O'zbekistonning hozirgi sharoitida JSTga a'zolikni strategik jihatdan ustuvor yo'nalish sifatida tanlash maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar JSTga a'zolikning quyidagi asosiy iqtisodiy afzalliklarini tasdiqlaydi:

- xalqaro savdo hajmlarining kengayishi;
- eksport bozorlari diversifikatsiyasi;
- xorijiy investitsiyalar oqimini kuchayishi;
- ichki bozor raqobatbardoshligining oshishi;
- iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi.

Empirik model natijalaridan kelib chiqib, JST a'zolidan qo'shimcha 17 foizlik iqtisodiy o'sish omili sifatida shakllanishi O'zbekistonning 2025–2030-yillar uchun YaIM prognozlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi. Bu esa JSTga qo'shilish iqtisodiy barqarorlik, o'sish sur'atlari va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishi bilan mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasida yetakchi o'ringa ega bo'lishi kerakligini ko'rsatadi

Quyidagi grafikda O'zbekistonning 2000-2024 yillar orasidagi YaIM, Sanoat va Ishsizlik ko'rsatkichlari tasvirlangan.



### 1-rasm. O'zbekistonning 2000-2024 yillar kesimidagi YaIM, Sanoat va ishsizlik darajasi ko'rsatkichlari

**Manba:** worldbank.org ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ushbu grafikka asosan O'zbekiston YaIM ko'rsatkichli trend modeli ko'rinishida o'zgarishini sezish mumkin. Shunga ko'ra quyidagi trend modelini quramiz (1-jadval):

1-jadvalga asosan modelni tahlil qilamiz:

Regressiya tenglamasi quyidagicha:

$$\log(Yaim_t) = -102.52 + 0.88 \cdot \log(Yaim_{t-1}) + 0.063 \cdot T_t + \varepsilon_t$$

Modeldan ko'rishimiz mumkinki, koeffitsient 0.0633, P-qiyamat 0.00 (juda ahamiyatli) qiymatga ega. Yil bir birlik oshganda,  $\log(YaIM)$  tahminan 0.0633 ga o'sadi. Bu real o'sish tahminan:

$$e^{0,0063} - 1 \approx 0,0654 \text{ bo'ladi ya'ni } 6,54 \text{ foiz o'sishni ifodalaydi.}$$

Demak, 2000-2024-yillar oralig'ida O'zbekistonning YaIM yiliga o'rtacha 6,5 % o'sib kelgan.

AR (birinchi tartibli avtokorrelyatsiya) koeffitsienti 0.881585, p-qiyamat 0.0000

qiymatga ega bo'lib, YaIMning logarifmik qiymati o'tgan yilgi qiymatga 88 foiz darajada bog'liq ekanligini, iqtisodiy o'sish jarayoni barqaror va inertsionligini bildiradi. Bu juda yuqori avtokorrelyatsiya bo'lib, real iqtisodiy vaqt qatorlarida nomrmal holat hisoblanadi. SIGMASQ-xatoliklar dispersiyasi 0.000253, p-qiymat 0.0140 bo'lib, statistic ahamiyatga ega. Bu model xatoliklarning juda kichik ekanini ya'ni model juda aniq tuzilganligini bildiradi.

Modelning umumiy mosligi yuqori,  $R^2 = 0.998708$  darajasi vaqt trendi va avtokorrelyatsion tuzilma YaIM o'zgarishini deyarli to'liq tushuntirishini ko'rsatadi. Baholashning standart xatosi kichik bo'lib – 0.01339, qoldiqlar dispersiyasining pastligi bilan mos keladi. Durbin – Watson statistikasining 1.3222 bo'lishi qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud bo'lish ehtimolini, biroq bu qiymat AR (1) modeli qo'llanilganini hisobiga qoniqarli baholanadi.


## 1-jadval

## O'zbekiston YaIM ko'rsatkichli trend modeli

| Ko'rsatkich             |              |           | Qiymat                             |        |           |
|-------------------------|--------------|-----------|------------------------------------|--------|-----------|
| Bog'liq o'zgaruvchi     |              |           | LOG(YAIM)                          |        |           |
| Baholash usuli          |              |           | ARMA Maximum Likelihood (OPG-BHHH) |        |           |
| Tanlanma davri          |              |           | 2000–2024                          |        |           |
| Kuzatuvlar soni         |              |           | 25                                 |        |           |
| Konvergentsiya          |              |           | 24 iteratsiyada erishilgan         |        |           |
| AR ildizlari (Inverted) |              |           | 0.88                               |        |           |
| O'zgaruvchi             | Koeffitsient | Std. xato | t-statistika                       | Prob.  |           |
| YIL                     | 0.063342     | 0.005216  | 12.14295                           | 0.0000 |           |
| C                       | -102.5157    | 10.52056  | -9.744322                          | 0.0000 |           |
| AR(1)                   | 0.881585     | 0.133985  | 6.579722                           | 0.0000 |           |
| SIGMASQ                 | 0.000253     | 8.97E-05  | 2.851778                           | 0.0104 |           |
| Ko'rsatkich             |              | Qiymat    | Ko'rsatkich                        |        | Qiymat    |
| R-squared               |              | 0.998869  | Mean dependent var                 |        | 24.93255  |
| Adjusted R-squared      |              | 0.998708  | S.D. dependent var                 |        | 0.482391  |
| S.E. of regression      |              | 0.017339  | Akaike info criterion              |        | -5.065982 |
| Sum squared resid       |              | 0.006314  | Schwarz criterion                  |        | -4.870962 |
| Log likelihood          |              | 67.32478  | Hannan-Quinn criterion             |        | -5.011892 |
| F-statistic             |              | 6184.934  | Durbin-Watson stat                 |        | 1.322023  |
| Prob(F-statistic)       |              | 0.000000  |                                    |        |           |

**Manba:** worldbank.org ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shlab chiqilgan.

Yuqoridagi modelga asoslanib 2025-2030 yillarda O'zbekiston YaIM ko'rsatkichi quyidagi grafik yordamida prognoz qilinishini ko'rishimiz mumkin (1), qulaylik uchun buni logarifmlaymiz: u holda quyidagi grafik (2) hosil bo'ladi. Bu yerda ko'k chiziqli kutilayotgan YaIMning qiymati va qizil chiziqli uning 95% lik ishonch intervallari:



**2-rasm. O'zbekistonning 2025-2030-yillar kesimidagi YaIM prognoz tahlili**

**Manba:** worldbank.org ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shlab chiqilgan.

Quyida esa 2025-2030 yillarda odatiy o'sish holatida YaIMning prognoz qiymatlari keltirilgan bo'lib, u quyidagicha:


**2-jadval**

**O'zbekiston YaIMning 2025-2030-yillar oralig'idagi prognoz qiymatlari mlrd. doll**

| Yillar | A'zo bo'lmagandagi holat | JSTga a'zo bo'lgandan keyingi YaIMining holati |
|--------|--------------------------|------------------------------------------------|
| 2026   | 163,0                    | 191,0                                          |
| 2027   | 174,0                    | 203,0                                          |
| 2028   | 185,0                    | 216,0                                          |
| 2029   | 197,0                    | 230,0                                          |
| 2030   | 210,0                    | 245,0                                          |

**Manba:** worldbank.org ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shlab chiqilgan.

Tadqiqot avvalida O'zbekiston JSTga a'zo bo'lsa odatiy YaIM 17% o'sishini prognoz qilingan edi. Agar shuni inobatga olsak, u holda ko'rsatkich quyidagicha bo'lishi prognoz qilish mumkin. Yuqoridagi holatlarni inobatga olib aytishimiz mumkinki JST tashkilotiga a'zo bo'lish O'zbekiston iqtisodiyotining 2030-yildagi YaIM ko'rsatkichi 245,0 mlrd. dollarga yetishini ko'rsatadi. 3-rasmda YAIMFOR bu JST a'zo bo'lgandagi, YAIMF a'zo bo'lmagandagi va YAIM asl qiymat hisoblanadi.



**3-rasm. O'zbekistonning JST ga a'zolik jarayonidagi YaIM ko'rsatkichining prognoz tahlili, mlrd dollarda**

**Manba:** worldbank.org ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shlab chiqilgan.



O'tkazilgan tadqiqotlarga asosan agarda O'zbekiston JSTga a'zo bo'lsa, kelgusida YaIM ko'rsatkichi 17 foiz o'sishini hamda yillar kesimida ya'ni 2025-2030-yillar davomida YaIM prognoz qiymati 2026-yil 1.91 mlrd so'mdan 2030-yilga qadar 245 mlrd so'mga yetishi prognoz tahlil qilingan.

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun xalqaro iqtisodiy integratsion birlashmalarga a'zolik mamlakat iqtisodiyoti uchun uzoq muddatli davrda ijobiy ta'sir natijasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek empirik baholashlar natijasiga ko'ra, YaIM ko'rsatkichining 2025-2030-yillar kesimidagi prognoz tahlili aynan Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lgandan so'ng yuqori o'sish dinamikasini ko'rsatgan.

Shuningdek o'tkazilgan prognoz tahlilida YaIMning kelgusi davrdagi 5 yillik qiymatlarini ham ko'rishimiz mumkin. JST a'zolicining ijobiy ta'siri mamlakatning global bozorlarga chiqish imkoniyatlari, eksportni diversifikatsiya qilish, savdo baryerlarining kamayishi va xalqaro standartlarga moslashuv kabi omillar bilan asoslanishi mumkin. Bu esa YAIM o'sishining keng qamrovli va uzoq muddatli drayverlarini shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekiston uchun global savdo tizimiga integratsiyalanish xususan, JSTga a'zolik mamlakat iqtisodiy o'sishining barqarorligi, eksport salohiyatining oshishi va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish nuqtai nazaridan strategik jihatdan ustun hisoblanadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatini shakllantirishda muvozanatli, diversifikatsiyalangan va global integratsiya imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yondashuv uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlik va o'sishni ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

– JSTga a'zolikni O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilash.

– Savdo siyosatini sanoat, investitsiya va raqobat siyosati bilan uyg'un holda olib borish.

– Eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash orqali xalqaro qiymat zanjirlariga faol qo'shilish.

– Qishloq xo'jaligi va yengil sanoatda raqobat bosimini yumshatish uchun moslashuv dasturlarini ishlab chiqish.

– Savdo kelishuvlarini ishlab chiqishda manfaatdor tomonlar, biznes va fuqarolik jamiyati ishtirokini kengaytirish.

– JST qoidalariga mos ravishda bojxona, texnik reglamentlar va sanitariya-fitosanitariya tizimlarini bosqichma-bosqich isloh qilish.

– Integratsiya jarayonining ijtimoiy oqibatlarini yumshatish uchun mehnat bozori va qayta tayyorlash dasturlarini kuchaytirish.

– Savdo siyosati ta'sirini doimiy monitoring qilish va empirik baholash mexanizmlarini joriy etish.

Ushbu xulosa va takliflar O'zbekistonning savdo siyosatini ilmiy asosda shakllantirish va JSTga a'zolikdan maksimal iqtisodiy samara olishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar/Jumepamypa/References:**

Allee, T.L. and Scalera, J.E. (2012) 'The divergent effects of joining international organizations: Trade gains and the rigors of WTO accession', *International Organization*, 66(2), pp. 243–276. <https://doi.org/10.1017/S002081831200006X>

Blouin, C. (2007) 'Trade policy and health: from conflicting interests to policy coherence', *Bulletin of the World Health Organization*, 85, pp. 169–173. <https://www.who.int/bulletin/volumes/85/3/06-039537.pdf>

Buettner, T. and Madzharova, B. (2019) 'Subsidies for energy efficient appliances',

*Proceedings. Annual Conference on Taxation and Minutes of the Annual Meeting of the National Tax Association*, 112, pp. 1–50. <https://www.jstor.org/stable/26873549>

Büthe, T. and Milner, H.V. (2012) 'The interaction of international and domestic institutions: Preferential trade agreements, democracy, and foreign direct investment', *APSA 2012 Annual Meeting Paper*. <https://ssrn.com/abstract=2109141>

Cling, J.P., Razafindrakoto, M. and Roubaud, F. (2009) 'The distributive impact of Vietnam's accession to the WTO', *Économie internationale*, 118(2), pp. 43–71. <https://doi.org/10.4000/economieinternationale.277>

Dang, D.A. (2013) 'How foreign direct investment promote institutional quality: Evidence from Vietnam', *Journal of Comparative Economics*, 41(4), pp. 1054–1072. <https://doi.org/10.1016/j.jce.2013.05.006>

Del Pupo, E. (2025) 'Contested spaces: Civil society engagement in EU–Mercosur trade negotiations', *JCMS: Journal of Common Market Studies*. <https://doi.org/10.1111/jcms.13568>

Gnangnon, S.K. (2024) 'Effects of intellectual property rights protection on services export diversification in developing countries', *KDI Journal of Economic Policy*, 46(1), pp. 53–89. <https://doi.org/10.23895/kdijep.2024.46.1.53>

Kaukab, R. (2011) 'Inclusive trade governance: participation of stakeholders from the national to the multilateral level', in *Making Global Trade Governance Work for Development: Perspectives and Priorities from Developing Countries*. Cambridge: Cambridge University Press. <https://www.cambridge.org/core/books/making-global-trade-governance-work-for-development>

Marchetti, J.A. and Roy, M. (2014) 'The TISA initiative: an overview of market access issues', *Journal of World Trade*, 48(4), pp. 689–711.

Srivastava, A. (2019) 'Designing an FTA strategy: The red flags to avoid and the options to win: A negotiator's perspective', *Global Trade and Customs Journal*, 14(7/8), pp. 329–338.

Sung, J.H. (2013) 'Some reflections on competition and subsidies under the EU–Korea FTA', in Harrison, J. (ed.) *European Union and South Korea: The Legal Framework for Strengthening Trade, Economic and Political Relations*. Edinburgh: Edinburgh University Press, pp. 87–110.

Trakman, L.E. (2008) 'The proliferation of free trade agreements: Bane or beauty?', *Journal of World Trade*, 42(2), pp. 367–388.